


KELISHILDI



A. Avloniy nomidagi  
Pedagogik mahorat milliy  
instituti rektori

A. Ismailov

3-oqtyabz 2025-yil

TASDIQLANDI

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari  
agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat  
vava xalqaro baholash ilmiy-amaliy  
markazi direktori



D. Davidova

3-oqtyabz 2025-yil

**IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASASIDA O'QITUVCHI  
VA TARBIYACHI (TIFLOPEDAGOGIKA) HUQUQINI BERISH  
BO'YICHA KASBIY QAYTA TAYYORLASH KURSINING  
YAKUNIY TEST SINOVI**

**SPETSIFIKATSIYASI**

**IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASASI O'QITUVCHISI  
VA TARBIYACHISI (TIFLOPEDAGOGIKA) HUQUQINI BERISH  
BO'YICHA KASBIY QAYTA TAYYORLASH  
BO'YICHA YAKUNIY TEST SINOVI  
SPETSIFIKATSIYASI**

**KIRISH**

Qayta tayyorlov kurslarining yakuniy attestatsiyasi pedagoglarning zamonaviy ta'lif talablariga javob bera olish darajasini, kasbiy kompetensiyalarini egallaganlik darajasini, o'z fani bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va metodik yondashuvlarini samarali qo'llay olish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan.

Spetsifikatsiya Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasasi o'qituvchisi va tarbiyachisi (tiflopedagogika) huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlov kurslarini tamomlagan pedagoglarning yakuniy bilim va malakalarini adolatli, shaffof va ishonchli baholashni ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Hujjat O'zbekiston Respublikasining ta'lif sohasidagi normativ-huquqiy bazasi, Prezident farmon va qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar, shuningdek uzluksiz ta'lif tizimini isloh qilish tamoyillariga tayanadi.

Spetsifikatsiya yakuniy test sinovi mazmunini kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv asosida tartibga soladi hamda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha talablarga muvofiqlikni tekshirish doirasini belgilaydi: tiflopedagogikaning nazariy asoslari va amaliy metodlari, tiflopsixologiya, maxsus didaktika va baholash, inklyuziv ta'lifning huquqiy-me'yoriy jihatlari, AKT va media savodxonlik, pedagogik etika hamda maktab/maktabgacha ta'lif amaliyoti.

Hujjat test topshiriqlari tuzilishi, mazmun sohalari, kognitiv darajalar bo'yicha taqsimot va baholash mezonlarini aniq belgilab, imtihonning mazmuniy yaxlitligi hamda o'lchov natijalarining xolisligi, ishonchlilikini ta'minlashga xizmat qiladi.

**I. Maqsad**

Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasasi o'qituvchisi va tarbiyachisi (tiflopedagogika) huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash yakuniy test sinovi orqali bitiruvchilarning kasbiy faoliyat uchun zarur bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini va tiflopedagogik amaliyatga tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda test mazmunini o'quv reja va malaka talablariga hamda kognitiv nisbatlarga mos tarzda balanslab, shu tariqa hujjat koordinatorlar, test tuzuvchilar, ekspertlar va baholovchilar uchun baholash jarayonining tartib-taomillari va o'lchov mezonlarini belgilovchi asosiy hujjat bo'lib, topshiriqlar sifati, jarayon barqarorligi va o'lchovli shaffoflikni kafolatlaydi.

## **II. Baholash qamrovi: o'quv bloklari va fanlari**

Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasasi o'qituvchisi va tarbiyachisi (tiflopedagogika) huquqini berish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash tinglovchisi bilimini baholash bo'yicha test topshiriqlari quyidagi bo'limlarni qamrab oladi.

### **Umumkasbiy fanlar**

1. Defektologiyaning tibbiy asoslari
2. Tiflopsixologiya
3. Tiflopedagogika
4. Bolalar adabiyoti
5. Tarbiyaviy ishlar metodikasi
6. Korreksiya fanlari
7. Tanlov fanlari

### **Ixtisoslik fanlar**

1. Matematika o'qitish maxsus metodikasi
2. Ona tili o'qitish maxsus metodikasi
3. Texnologiya fanini o'qitish maxsus metodikasi
4. Tabiatshunoslik o'qitish maxsus metodikasi
5. Brayl yozuvini o'qitish metodikasi
6. Tiflotexnika va maxsus ta'lilda axborot texnologiyalaridan foydalanish
7. Tanlov fani

## **III. Baholash konstruktordari**

T/r	Talablar	Konstruktlar	Test	Ulushi %
<b>I. Umumkasbiy fanlar</b>				
1.	<b>Defektologiyaning tibbiy asoslari</b>	odam organizmi anatomiyasи va fiziologiyasi, а'зolar tizimlari hamda nerv tizimi asoslarini, shuningdek, nevropatologiya, psixopatologiya, ko'rish organi patologiyasi, genetika va gigiyena asoslarini hamda defektologiya klinikasidagi asosiy tushunchalar va atamalarni bilishi, olgan bilimlarini o'quvchi salomatligini kuzatishda amalda qo'llay olishi, ko'rish va psixik buzilish belgilarini farqlab kuzatishi, gigiyenik talablarni ta'lim-tarbiya jarayonida tatbiq etishi hamda zarur holatda mutaxassisiga murojaat qilish lozimligini aniqlay olishi, u bolalarda anomal rivojlanish sabablari va oqibatlarini tahlil qila olishi, tibbiy asoslarni pedagogik faoliyat bilan bog'lay olishi, o'quvchilarning individual sog'lomlashdirish va rivojlanish ehtiyojlariga mos yondashuvni tanlay olishi, profilaktik choralar va gigiyenaning pedagogik jarayondagi ahamiyatini anglashi	4	8 %

2.	<b>Tiflopsixologiya</b>	Tiflopsixologiya fanining maqsad va vazifalarini bilishi, tiflopsixologiya fani metodlarini va ulardan amaliyotda foydalana olishi, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishi, idrok, xotira, tafakkur va nutq xususiyatlarini, shuningdek, tiflopsixologiyada qo‘llaniladigan asosiy tushunchalar va ilmiy qarashlarni bilishi, o‘quvchilarning psixologik holatini kuzatishda va baholashda, ko‘rish nuqsoniga moslashtirilgan ta’lim-tarbiyaviy metodlarni tanlashda, shuningdek, o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib ta’lim jarayoniga ‘tatbiq etishda qo‘llay olishi, ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarni tahlil qila olishi, tiflopsixologik bilimlarni pedagogik faoliyat bilan bog‘lay olishi, individual yondashuv asosida ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil eta olishi, ko‘rish nuqsoniga ega o‘quvchilarda kompensator imkoniyatlar va ijtimoiy moslashuvni shakllantirish yo‘llarini tushunishi	8	16 %
3.	<b>Tiflopedagogika</b>	tiflopedagogikaning maqsad va vazifalarini, obyekt va predmetini, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning turlari va tasnifini, shuningdek, tiflopedagogika tarixi hamda V. Gayui va L. Brayl kabi asoschilarning faoliyati haqida bilishi, maxsus maktablarda darslarni tashkil etish, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar uchun mos metod va texnik vositalardan (Brayl yozuvi, optik vositalar va boshqalar) foydalanish, mashg‘ulotlarni tahlil qilish va hujjalarni yuritishda amaliy qo‘llay olishi. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya jarayonini tahlil qila olishi, maxsus usullarning afzallik va kamchiliklarini farqlay olishi, ularni ijtimoiylashtirish va jamiyatda to‘laqonli ishtirokini ta’minlash bo‘yicha mulohaza yurita olishi va amaliyotda qo‘llay olishi	8	16 %
4.	<b>Bolalar adabiyoti</b>	bolalar adabiyoti fanining maqsad va vazifalarini, uning predmetini, o‘zbek va jahon bolalar adabiyotining yetakchi namoyandalari va asosiy tamoyillarini, milliy uyg‘onish davri ma‘rifatparvarlarining bolalar adabiyotini rivojlantirishdagi rolini bilishi, dars jarayonida bolalarga mos badiiy asarlarni tanlashda, ularning yosh xususiyatlari va kitobxonlik darajasiga muvofiq tahlil qilishda, adabiy janr va uslublarni farqlash hamda estetik tarbiyani shakllantirishda qo‘llay olishi, bolalar adabiyotining ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qila olishi, asarlarning badiiy-uslubiy xususiyatlarini anglashi, bolalar ijodkorligi va kitobxonligini rivojlantirish yo‘llarini aniqlay olishi, milliy va jahon adabiyoti namunalari orqali yosh avlod tarbiyasini takomillashtirish bo‘yicha mulohaza yurita olishi	2	4 %

5.	<b>Tarbiyaviy ishlar metodikasi</b>	Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa, maktab-internatlarda tarbiya jarayonining maqsad va vazifalarini, uning metodologik asoslarini, tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakllari va usullarini, shuningdek, maxsus maktab va maktab-internatlarda tarbiyaviy ish yo'naliшlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, o'quvchilar shaxsini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida dunyoqarashini shakllantirish, sinf va guruh rahbari sifatida tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri rejalashtirish va tashkil etish, interfaol metodlardan foydalanishni amalda qo'llay olishi. Tarbiyaviy ishlarning samaradorligini tahlil qila olishi, o'quvchilarning yosh, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashuvlarni qo'llay olishi, milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga uyg'unlashtirish, o'quvchilarni barkamol inson qilib tarbiyalash yo'llari haqida mulohaza yurita olishi	4	8 %
6.	<b>Korreksiya fanlari</b>	ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish, kasb-hunarga yo'naltirish hamda davolovchi jismoniy tarbiya darslarining maqsad, vazifa va tashkil etish talablari haqida bilimga ega bo'lishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi, ko'zi ojiz va zaif ko'ruchchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning maqsadi va yo'naliшlarini (logopediya, ijtimoiy hayotga tayyorlash mo'ljal olish, qo'l motorikasini rivojlantirish, ritmika) bilishi, ularning psixik va jismoniy rivojlanishidagi xususiyatlar va kompensatsiya jarayonlarini hisobga olib amaliy faoliyatni tashkil eta olishi, mustaqil hayotga tayyorlashda, saqlanib qolgan analizatorlardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy-maishiy hayotda uchraydigan muammolarini tahlil qila olishi, korreksion-pedagogik mashg'ulotlarning samaradorligini anglashi, individual yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq eta olishi, bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi va mustaqil hayotga tayyorlanishi bo'yicha mulohaza yurita olishi	3	6 %
7.	<b>Tanlov fanlari</b>	Mazkur yo'naliш bo'yicha qayta tayyorlash kursiga mos ravishda, mavjud ehtiyoj va buyurtmachilarning takliflari inobatga olingan holda ishlab chiqiladi.	1	2 %
<b>II. Ixtisoslik fanlar</b>				
1.	<b>Matematika o'qitish maxsus metodikasi</b>	Maxsus maktab-internatlarda matematika o'qitish uslubiyatining umumiy masalalari va vazifalarini bilishi, o'quvchilarning matematika faniga oid bilimlarini egallash xususiyatlari, uni o'qitish usullari, maxsus maktabda matematika darsi va unga qo'yiladigan talablarni tahlil qila olishi, maxsus	5	10 %

		maktabda matematika o'qitishning tayyorlov davri uslubiyati, 100 va 1000 ichida raqamlash, qo'shish, ayirishni o'rgatish uslubiyatini, metrik o'lchov sistemasini o'rgatish uslubiyati. Miqdorlarni o'lchash va unda hosil bo'ladigan sonlar ustidagi amallarni o'rgata olishi, vaqtga oid tasavvurlarni hosil qilishning o'ziga xos xususiyatlarini amaliyotga joriy eta olishi, oddiy va o'nli kasrlarni, ular bilan amallar bajarishni o'rgatishni bilishi, masalalar ustida ishlash usullarini va geometrik materialni qo'llay olishi.		
2.	<b>Ona tili o'qitish maxsus metodikasi</b>	Maxsus maktabda ona tili o'qitish metodikasi fanining mazmuni, maqsadi va vazifalarini bilishi, savod o'rgatish metodikasi, o'quvchilarida o'qish malakalarini shakllantirish yo'llari, o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish, sinfdan tashqari o'qish, grammatika, imloga o'rgatish metodikasi, o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi va o'quvchilar nutqining leksik tomonini rivojlantirish yo'llarini tahlil qila olishi.	4	8 %
3.	<b>Texnologiya fanini o'qitish maxsus metodikasi</b>	Maxsus maktabda texnologiya ta'limining maqsadi va vazifalarini bilishi, ushbu maktab o'quvchilarining mehnat xususiyatlarini va yo'nalishlarini amaliyotga joriy qila olishi, texnologiya ta'limi bo'yicha davlat talabi va dasturlarni tahlil qila olishi, texnologiya darslari va turlarini bilishi, ularni tashkil etish mazmuni, darsning texnologik xaritasini tuza olishi, texnologiya darslarini olib borishda zamonaviy yondashuvlarni joriy eta olishi va interfaol usullardan foydalanishni bilishi.	4	8 %
4.	<b>Tabiatshunoslik o'qitish maxsus metodikasi</b>	tabiatshunoslik fanining maqsad va vazifalarini, dars tiplari va o'qitish metodlarini, darsga qo'yiladigan didaktik, tarbiyaviy va gigiyenik talablarni bilishi, tabiatshunoslik darslarini rejalashtirish, interfaol usullarni qo'llash, texnologik xarita tuzish, sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilish va o'quv-tajriba uchastkasida mashg'ulotlarni tashkil etishda bilimlarni qo'llay olishi, tabiat hodisalarini kuzatish va tajribalar asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, ekologik madaniyat, mehnatga ijobiy munosabat va estetik didni shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qila olishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos metodlarni tanlay olishi va tabiatshunoslik ta'limining tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi imkoniyatlari haqida mulohaza yurita olishi	2	4 %
5.	<b>Brayl yozuvini o'qitish metodikasi</b>	Brayl yozushi tarixi va tarkibini bilishi, harflar, raqamlar va belgilarni yozishni qo'llay olishi, tez, aniq, xatosiz yozish ko'nikmalarini shakllantira olishi, brayl yozuvida tarjimayi hol, dars elementini, ixtiyoriy mavzuda taqdimot tayyorlashni qo'llay olishi.	2	4 %

6.	<b>Tiflotexnika va maxsus ta’limda axborot texnologiyalarida n foydalanish</b>	Ko’rishda muammolari bo’lgan o’quvchilarga fan asoslarini o’rgatishda qo’llaniluvchi tiflotexnik vositalar va ulardan foydalanishni bilishi va o’rgata olishi, tiflotexnik vositalardan foydalanishga qo’ylgan talablar, tiflotexnik vositalar yordamida darslik, o’quv va didaktik qo’llanmalar yaratish tajribalari tahlil qila olishi, tiflotexnik vositalarga moslashtirilgan dasturlar loyihasi bilan tanishish hamda ulardan foydalanish yo’llari.	2	4 %
7.	<b>Tanlov fanlari</b>	Mazkur yo’naliш bo‘yicha qayta tayyorlash kursiga mos ravishda, mavjud ehtiyoj va buyurtmachilarning takliflari inobatga олинган holda ishlab chiqiladi.	1	2 %

#### **IV. Test turlari**

Y1 –To’rtta javob variantli, bitta to‘g’ri javobli yopiq test.

Y2 – Bir necha javobli yopiq test.

Y3 – Moslikni tanlashga oid yopiq test.

Y4 – Gap yoki jarayonlarni to‘g’ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan test.

*Eslatma:* Texnik imkoniyatlar sababli testlarning ayrim turlarida o’zgarishlar bo’lishi mumkin. Shuningdek, testlar soni, ball miqdori hamda qiyinlik darajasi sinov natijalariga qarab yangilanib borishi mumkin.

#### **V. Asosiy ko‘rsatkichlar**

Fanlar soni	Topshiri q soni	Ajratilgan vaqt	Ball	Baholanadigan aqliy faoliyat
14	50	100 daqiqa	100 ball	Bilish – 15 % Qo’llash – 70 % Mulohaza – 15 %

#### **VII. Baholash mezoni**

Har bir sinov test turiga qarab turli xil baholash mezonlariga ko‘ra baholanadi:  
Agar belgilangan javob to‘g’ri bo‘lsa, 2 ball.

Agar belgilangan javob noto‘g’ri bo‘lsa, 0 ball.

#### **VIII. Imtihon tartib-qoidalari**

1. Taqiqlangan vositalar: Imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’yan man etiladi. Qoidani buzgan tinglovchi testdan chetlashtiriladi va natijasi bekor qilinadi.

2. Axloq va intizom: Nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni rasmiylashtiradi va tinglovchi testdan chetlashtiriladi hamda natijasi bekor qilinadi.

## **IX. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar:**

1. Defektologiyaning tibbiy asoslari o‘quv-uslubiy majmua. 2025-yil.
2. Tiflopsixologiya o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
3. Tiflopedagogika o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
4. Bolalar adabiyoti o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
5. Tarbiyaviy ishlar metodikasi o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
6. Korreksiya fanlari o‘quv–uslubiy majmua. 16-sentyabr 2025-yil.
7. Tanlov fani o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
8. Matematika o‘qitish metodikasi o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
9. Ona tili o‘qitish maxsus metodikasi o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
10. Texnologiya fanini o‘qitish maxsus metodikasi o‘quv–uslubiy majmua. 2025.
11. Tabiatshunoslik o‘qitish maxsus metodikasi o‘quv–uslubiy majmua. 2025.
12. Brayl yozuvini o‘rgatish metodikasi o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.
13. Tiflotexnika va maxsus ta’limda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quv-uslubiy majmua. 2025-yil.
14. Tanlov fani o‘quv–uslubiy majmua. 2025-yil.